

## O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDA GENDER KODLI FRAZEOLOGIZMLARNING QIYOSIY TAHLILI

*Raxbar: S.P.Saidakbarova*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti*

**Maftuna Karshibayeva**

*1-bosqich magistrant, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

**Umaraliyev Fazliddin**

*O‘qituvchisi, O‘zbekiston davlat jaxon tillari universiteti*

**Annotatsiya:** Berilgan maqolada ingliz tilini o‘rganish jarayonida qo‘llaniladigan gender tushunchasi bilan bog‘liq iboralar va ularning kelib chiqish tarixi va xususiyatlari, hamda olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar borasida qisqacha ma‘lumotlar izohlar bilan ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** ibora, gender, lingvistika, etimologiya, psixika, lingvistika.

Gender tushunchasi yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlash hozirgi vaqtda fanning dolzarb va qiziqarli yo‘nalishi bo‘lib hisoblanib kelmoqda. Erkak va ayol ko‘p jihatdan, ham fiziologik, ham psixologik jihatdan farq qilsa, bu ikki jins vakillari ma‘lum bir ijtimoiy tabaqaga tegishli bo‘lsa ham, ularni ifodalash va ta‘svirlash turlichadir. Ayol va erkak tomonidan qo‘llaniladigan lingvistik shakllar qarama-qarshiligi ma‘lum darajada barcha nutq jamoalarida, ayollar erkaklarnikiga qaraganda yaxshiroq xotira egasi ekanligi, erkaklar esa ayol vakillaridan faqat o‘laroq yo‘nalish hissini saqlab qolish bilan farqlanadi. Ushbu maqolada gender lingvistikasi muammosi va ularga qaratilgan iboralar va ularni uning paydo bo‘lishi va shakllanishi jihati hamda ingliz va o‘zbek nasrida ayollar obrazining xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Har bir millat milliy etnik ur-odatlaridan kelib chiqqan holda o‘zining adabiyotida ayol obrazini turlicha talqinda tasvirlaydi. O‘zbek adabiyotida ayol timsoli ona, rafiqqa, uy bekasi sifatida tasvirlansa, ingliz adabiyotida esa bularga qo‘shimcha sifatida ayol ishbilarmon, tadbirkor, ishchi xodim kabi vazifalarni bajaruvchi obyekt sifatida talqin etiladi. Ingliz adabiyotida ham ayol obrazi davrlar davomida evolyutsion o‘zgarib borgan. XIX asr ingliz nasrida ayol obrazi erkak yozuvchilar tomonidan to‘laqonli ideallashtirilgan holda yaratilgan. Adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz biz ayol obrazini yaratishda asosan ayol va jamiyat o‘rtasidagi munosabatdan, ayolning jamiyat qatlamlarida qanday tan olinishi va uning jamiyatda, oilada o‘rnini tahlil qilgan holda ayolning nasrda tasvirlanishiga baho berish mumkin. Har bir millat adabiyotida ayol obraziga to‘htaladigan bo‘lsak, u o‘sha xalqning tabiatiga, zamon ruhiga mos tarzda aks etadi, idrok qilinadi. Shunga ko‘ra, bir xil sharoitda harakat qiladigan personajlar har bir adabiyotda turlicha namoyon bo‘ladi.

O‘zbek nasrida ayol siymosi talqini mumtoz va zamonaviy adabiyotda ko‘p uchragani sababli, XX asrning dastlabki yillarida ayollar obrazlari mahorat bilan yoritilgan asarlar soni yanada oshdi. Shu sababli ular orasida aynan nasriy janrda yozilgan asarlarni misol tariqasida keltirib o‘tishimiz mumkin; Kumushbibi, Zaynab (“O‘tkan kunlar”), Zebi (“Kecha va kunduz”), Unsin (“Dahshat”), Gulnor (“Qutlug‘ qon”), Saida (“Sinchalak”) obrazlari o‘zbek nasrida yaratilgan ayol siymosi mohirlik bilan ochib berilgan asarlar sirasiga kiradi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda esa ayol obrazini yoritishga qaratilgan asarlar juda ko‘p bo‘lmasa-da, lekin

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

deyarli har bir asarlarda ayol xarakterini, ayolning ichki kechinmalarini to‘laqonli ochib beruvchi qahramonlar mavjud.

Tadqiqotlarning kuzatilishicha, hozirgi kunga qadar ingliz adabiyotining har bir adabiy davrida ayol obrazi tasvirlangan ko‘plab asarlar yaratilgan. Xususan, Jeyn Ostinning “G‘urur va andisha” asaridagi Elizabet Bennet xarakteri, Sharlotta Brontening “Jeyn Eyer” romanidagi Jeyn Eyer obrazi,<sup>1</sup> Margaret Mitchellning “Shamollarda qolgan hislarim” asaridagi Skarlett O‘Hara obrazi shular jumlasidandir.

Misol o‘rnida „The painted peacocks“ chiroyli narsa kiyishni yoqtiradigan olijanob ayolni, „My blossom“<sup>2</sup> iborasi qadrli yoki bo‘lmasa „A laughing stock“ ahmoqona ish qiladigan ayolga nisbatan foydalansa, „She is blooming“ iborasi esa juda ko‘rkamlashgan ayolga nisbatan shu kabi iboralarni so‘zimiz isboti o‘rnida foydalanishimiz mumkin. Yoki bo‘lmasa “Behind every great man is a great woman” iborasini "Har bir buyuk erkakning orqasida buyuk ayol turadi" degan so'z erkaklarning yutuqlari ko'pincha ayollarning hissasi bilan qo'llab-quvvatlanishi yoki yordam berishi, odatda qo'llab-quvvatlovchi yoki tarbiyalovchi rol o'ynashini ko'rsatadi. Ushbu iboraga o'zbek tilida “Erkak bosh bo‘lsa, ayol bo‘yindir” degan frazeologik birlikka ma‘no jihatidan yondosh qilib foydalanishimiz mumkin. Jm5Eng qadimgi qaydnomalarda qayd etilganidek amerikalik yozuvchi Virjiniya Vulf u 1929 yilda o'zining "O'z xonasi" asarida erkaklar hayotidagi ayollar rolining ahamiyatini muhokama qiladi.

Xulosa o‘rnida, biz uchta asosiy jihatni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Birinchidan, umuman olganda, majoziy tilni, xususan, idiomalarni o‘rgatish juda murakkab va shuning uchun nafaqat pedagogik nuqtai nazardan, balki madaniy jihatdan ham ko‘p muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, bu turg‘un iboralar nutqda tez-tez bo‘lganligi sababli o‘quv dasturiga kiritilishi hamda ikkinchi darajali o‘ringa tushmasligi uchun harakat qilish zaruriyati mavjudligi. Buning uchun etimologiyani o‘rganish juda muhimdir, chunki bu iboralar ma‘lum bir vaqtda va madaniy sabablarga ko‘ra yaratilgan bo‘lib, ularni faqat iboraning tarkibiy qismlarini tahlil qilish orqali bilib bo‘lmaydi. Ko‘rinib turibdiki, har bir rang o‘ziga xos semantik tarkibga ega ekanligi, shuning uchun agar biz ushbu semantik tarkibni o‘quvchilarimizga tushuntirib o‘tsak, ular kontekstdan idiomalarning ma‘nolari va ularning ko‘chma ma‘no bilan bog‘lashlari mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, rangning semantik tuzilishidagi milliy farqlar madaniy, siyosiy yoki sof lingvistik omillar bilan bog‘liq deyishimiz mumkindir. Uchinchidan, o‘qituvchilar o‘z ta‘lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o‘quvchilarga idiomalarni o‘rganish muhimligini tushunishlari kerak. Idiomalarning madaniy va tarixini va ularning etimologiyasini bilgandan so‘ng, ularni tushunish va ular ustida ishlarni olib borish uchun mo‘ljallangan barcha turdagi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi.

### Adabiyotlar ro‘yhati.

1. V.S. Samarina, G.N. Nezhelskaya, L.G. Gubanova Issues of Cog. Ling. 2(51), pp. 118-126 (2017)
2. Cambridge Advanced Learner’s Dictionary (Cambridge: Cambridge University Press, 2003)

<sup>1</sup> Brontë, Charlotte. Jane Eyre. London: Smith, Elder & Co., 1847.

<sup>2</sup> A.V. Kunin, The Bilg English-Russian Fraseological Dictionary (Moscow: Russian Language Press – Media, 2005)

3. A.S. Hornby, Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English (Oxford: Oxford University Press, 2000)
4. Longman Dictionary of Contemporary English, (Harlow: Pearson Education Limited, 2003)
5. Macmillan English Dictionary (Oxford: Macmillan Education, 2002)
6. New Webster's Dictionary of the English Language (Delhi: Surjeet Publications, 1999)
7. Oxford Dictionary of English Etymology (Oxford: Oxford University Press, 1996)
8. A.V. Kunin, The Bilg English-Russian Fraseological Dictionary (Moscow: Russian Language Press – Media, 2005)
9. S.F. Kuskovskaya, Collection of English proverbs and sayings (Moscow: Higher School Press, 1987)
10. Brontë, Charlotte. Jane Eyre. London: Smith, Elder & Co., 1847.
11. Саидакбарова, С. П. (2024). CHALLENGES WOMEN ENCOUNTER IN SCIENCE AND BUSINESS IN UZBEKISTAN. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 301-307). ООО «SupportScience».
12. Saodat Parxadjanovna Saidakbarova. UNDERSTANDING OF CODING SYSTEMS IN TEACHING AND TRANSLATING. ILM SARCHASHMALARI// URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI. 2023/5, -B.185